

Yoshlar bandligi — amaliy yechimlar orqali

// 25.07.2026

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/yoshlar20260725>

Mamlakatimizda yoshlarning bandligini ta'minlash, ularning kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar izchil davom etmoqda.



Shu maqsadda "O'zkiyosanoat" AJ ishchi guruhi Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanidagi "Paxtachi" mahallasida yashovchi ishsiz yoshlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirmoqda. Uchrashuvlar davomida ularning qiziqishlari, kasbiy rejalari va ehtiyojlari o'rganilib, har bir yosh uchun individual yondashuv asosida amaliy yechimlar ishlab chiqilmoqda.



Tashabbusning asosiy maqsadi — yoshlarning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi, mehnat bozorida munosib o'rin topishi va o'z tanlagan faoliyatini mustaqil yo'lga qo'yishi uchun zarur ko'makni ta'minlashdan iborat.



Davlatimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida mazkur ishlar doirasida yana bir muhim qadam tashlandi. "O'zkiyosanoat" AJ tomonidan 5 nafar yoshga ular tanlagan kasb va faoliyat yo'nalishlariga mos mehnat vositalari hamda zarur asbob-uskunalar beg'araz taqdim etildi. 



Bu kabi manzilli qo'llab-quvvatlash choralari yoshlarning mehnat faoliyatini boshlashi, o'zini o'zi band qilishi va iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.